XALQ DEPUTATLARI KITOB TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 4 - iyul VI-72-81-4-62-K/22 Kitob tuman hokimligi

Kitob tuman mahalliy budjetining 2022-yil uchun tasdiqlangan parametriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 27-moddasiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasini raisi, bosh vazir o‘rinbosarining 2022-yil 13-apreldagi 04-01/140-sonli xatini inobatga olib, tuman mahalliy budjetining 2022-yil uchun tasdiqlangan parametriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi tuman hokimligi moliya bo‘limini taqdim etgan hisobotini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 24-moddasiga muvofiq Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Tuman mahalliy budjetining 2022-yil uchun tasdiqlangan parametriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri I.Raxmonovning taqdim etgan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-146-sonli qaroriga asosan tumanda tashkil etilgan oila va xotin-qizlar bo‘limining ish haqlarini o‘z vaqtida moliyalashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasini raisi, bosh vazir o‘rinbosarining 2022-yil 13-apreldagi 04-01/140-sonli xatini inobatga olib, tuman mahalliy budjetining 2022-yil uchun tasdiqlangan parametriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri (I.Raxmonov)ga;

O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi talablariga asosan tuman mahalliy budjetining tasdiqlangan parametriga belgilangan tartibda mazkur qarorning ilovasiga muvofiq ko‘zda tutilgan o‘zgartirishlarni kiritish;

tuman mahalliy budjetining 2022-yil uchun tasdiqlangan budjet parametri doirasidagi mablag‘lardan maqsadli, samarali va o‘z vaqtida foydalanish maqsadida tuman mahalliy budjetidan mablag‘ oluvchi budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarining so‘rovlariga hamda viloyat moliya bosh boshqarmasi bilan kelishilgan holda, shuningdek belgilangan tartiblar asosida o‘zgartirishlar kiritish va kiritilgan o‘zgartirishlar yuzasidan har chorak yakuni bo‘yicha Xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot kiritib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Kitob tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Ergashevlar zimmasiga yuklatilsin

Sessiya raisi **Egamberdiyev B.B**

Xalq deputatlari Kitob tuman Kengashining
2022 yil 4 iyuldagi
VI-72-81-4-62-K/22-son qaroriga
1-ilova

Китоб туман маҳаллий бюджетининг 2022-йил учун тасдиқланган параметрига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида

миниг сўмда

т/р	Ташкилотлар номи	Бўлим, кичик бўлим, боб	харажатлар моддаси	Жами йиллик	шундан чораклар ва ойлар кесимида									
					2--чорак	июн	3-чорак	июл	август	сентябр	4-чорак	октябр	ноябр	декабр
1	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими	7011-906-259	41-11-100	-86932	0	0	-56563	-36317	-10123	-10123	-30369	-10123	-10123	-10123
			41-21-100	-21513	0	0	-13998	-8988	-2505	-2505	-7515	-2505	-2505	-2505
		жами	x	-108445	0	0	-70561	-45305	-12628	-12628	-37884	-12628	-12628	-12628
2	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими (КФЙ)	7011-401-259	41-11-100	-22392	0	0	-13995	-8397	-2799	-2799	-8397	-2799	-2799	-2799
			41-21-100	-5543	0	0	-3464	-2078	-693	-693	-2079	-693	-693	-693
		жами	x	-27935	0	0	-17459	-10475	-3492	-3492	-10476	-3492	-3492	-3492
3	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими (МФЙ)	7011-402-259	41-11-100	-881676	0	0	-481596	-214876	-133360	-133360	-400080	-133360	-133360	-133360
			41-21-100	-217944	0	0	-118923	-52909	-33007	-33007	-99021	-33007	-33007	-33007
		жами	x	-1099620	0	0	-600519	-267785	-166367	-166367	-499101	-166367	-166367	-166367
4	Туман хокимлиги (оила ва хотин-кизлар бўлими)	7085-400-026	41-11-100	991000	0	0	991000	549000	237000	205000	0	0	0	0
			41-21-100	245000	0	0	245000	137000	59000	49000	0	0	0	0
		жами	x	1236000	0	0	1236000	686000	296000	254000	0	0	0	0
5	Туман хокимлиги	7049-997-018	48-21-190	0	0	0	-547461	-362435	-113513	-71513	547461	182487	182487	182487
ЖАМИ			41-11-100	0	0	0	438846	289410	90718	58718	-438846	-146282	-146282	-146282
			41-21-100	0	0	0	108615	73025	22795	12795	-108615	-36205	-36205	-36205
			48-21-190	0	0	0	-547461	-362435	-113513	-71513	547461	182487	182487	182487
			x	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0

Китоб туман молия бўлими мудири И.Рахмонов